



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/4



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 4-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 4 - SON
2026

Google Scholar



zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Academic
Resource
Index
ResearchBib

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

O'quvchilarning repetitorga bog'lanib qolishi va maktab ta'limining roli**Muqumboev Muslimbek Muhsin o'g'li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika yonalishi 1-kurs 1-25-guruh talabasi

E-mail muqumboeyvmuslim@gmail.com

Ilmiy Rahbar: **Eshmurodova Dildor Normuratovna**

E-mail eshmurovadildor1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi ta'lim tizimida o'quvchilarning repetitorlarga bog'lanib borayotganligi hamda maktab ta'limining o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Repetitorlikning ijobiy va salbiy jihatlari ko'rib chiqilib, maktabning shaxsni har tomonlama rivojlantirishdagi o'рни asoslab beriladi. Shuningdek, ta'lim sifati, zamonaviy texnologiyalar va yoshlar psixologiyasining bu jarayonga ta'siri ham ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, repetitor, maktab, o'quvchi, bilim, tarbiya, Z avlod, texnologiya

Kirish. So'nggi yillarda ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalariga kirish jarayonining murakkablashuvi o'quvchilarni repetitor xizmatlaridan keng foydalanishga undamoqda. Natijada ko'plab o'quvchilar asosiy e'tiborni maktabga emas, balki repetitor mashg'ulotlariga qaratmoqda. Bu holat esa maktab ta'limining ahamiyati pasayib borayotgandek taassurot uyg'otadi. Shu sababli mazkur maqolada repetitorlik va maktab ta'limining o'zaro o'рни tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Repetitorlikning afzalliklari. Repetitorlik tizimi o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlaydi. Har bir o'quvchining bilim darajasi va qobiliyatidan kelib chiqib dars o'tiladi. Bundan tashqari, repetitorlar asosan test topshiriqlariga yo'naltirilgan bo'lib, qisqa muddat ichida yuqori natijalarga erishishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilar uchun samarali usul sifatida qaraladi. Repetitorlikning kamchiliklari

Shu bilan birga, repetitorlikning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Eng asosiy muammo — o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatining pasayishidir. Chunki repetitorlar ko'proq tayyor yechim va usullarni o'rgatadi. Bundan tashqari, o'quvchilar faqat test natijasiga yo'naltirilgan holda chuqur bilim olishdan chetda qolishi mumkin. Natijada ular bilimni keng emas, balki tor doirada o'zlashtiradi.

Maktab ta'limining ahamiyati

Maktab o'quvchilarga fundamental bilim beradi. Bu yerda nafaqat fanlar o'rgatiladi, balki o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi ham ta'minlanadi. Maktabda intizom, jamoada ishlash, ijtimoiy muhitga moslashish kabi muhim ko'nikmalar rivojlanadi. Shu sababli maktab ta'limi har qanday qo'shimcha ta'limdan ustun turadi.

Repetitorlarga talab oshishining sabablari

Bugungi kunda repetitorlarga bo'lgan talabning oshib borishiga sabab sifatida maktablarda ta'lim sifati bilan bog'liq muammolarni ham ko'rsatish mumkin.

Ayrim hollarda pedagoglar o'quvchilarga bilimni to'liq va samarali yetkazib bera olmayotgani kuzatiladi. Bu esa o'quvchilarning qo'shimcha ta'lim — ya'ni repetitor xizmatlariga murojaat qilishiga olib kelmoqda.

Mazkur muammoning sabablaridan biri sifatida zamonaviy texnologiyalar, xususan, mobil telefonlarning ta'lim jarayoniga salbiy ta'siri ham qayd etiladi. Ayniqsa, 1997–2012-yillar oralig'ida tug'ilgan Z avlod vakillari texnologik o'zgarishlar davrida voyaga yetgan bo'lib, ularning diqqatni jamlash darajasi va o'qishga bo'lgan yondashuvi sezilarli darajada o'zgargan.

Natijada ayrim o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqish yuzaki shaklga kelib, bu holat oliy ta'lim muassasalariga kirish natijalariga ham ta'sir qilmoqda. Jumladan, 2024–2025-o'quv yilidagi abituriyentlar misolida tayyorgarlik darajasidagi farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, faqat repetitor yordamida o'qigan o'quvchilar ko'pincha test topshirishda muvaffaqiyatga erishadi, ammo ularning umumiy bilim darajasi va mustaqil fikrlashi yetarli darajada rivojlanmaydi. Aksincha, maktab ta'limiga asoslangan holda repetitordan foydalangan o'quvchilar yanada samarali natijalarga erishadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, repetitor o'qishga kirishda muhim vosita bo'lishi mumkin, ammo u maktab ta'limining o'rnini bosa olmaydi. Maktab o'quvchini nafaqat bilim bilan, balki hayotiy ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida maktab va repetitor o'rtasida muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega.

Repetitor o'qishga tayyorlaydi, maktab esa hayotga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
- Pedagogika nazariyasi va tarixi
- Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilmiy maqolalar
- Internet manbalari
- Muqumboy Muslimbek. Telfon bizni boshqaryaptimi maqolasi